

**SUD-AMALIYOTIDA ILMIY-HUQUQIY TADQIQOTLARDAN FOYDALANISH:
MUAMMOLAR, MAVJUD TAJRIBA VA ISTIQBOLLAR**

Abdumalikov Abbosbek Abrorbek o‘g‘li
Ilmiy rahbar: yu.f.d.(PhD) I.X.Atamirzaev
Namangan davlat universiteti
Yuridik fakulteti 1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18986095>

Annotatsiya. Mazkur maqolada sud-amaliyotida ilmiy-huquqiy tadqiqotlardan foydalanish masalalari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, sud amaliyotida ilmiy tadqiqotlardan foydalanish jarayonida uchrayotgan muammolar aniqlanib, ularning vujudga kelish sabablari ilmiy va normativ-huquqiy manbalar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: sud, sud-amaliyoti, tadqiqotlar, huquqni qo‘llash, sud qarorlari, plenum, sud hokimiyati, huquqiy davlat.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы использования научно-правовых исследований в судебной практике. Также выявляются проблемы, возникающие в процессе применения научных исследований в судебной практике, и анализируются причины их возникновения на основе научных и нормативно-правовых источников.

Ключевые слова: суд, судебная практика, исследования, правоприменение, судебные решения, пленум, судебная власть, правовое государство.

Annotation. This article examines the issues of using scientific and legal research in judicial practice. It also identifies the problems arising in the process of applying scientific research in court practice and analyzes the causes of these problems based on scientific and regulatory legal sources.

Keywords: court, judicial practice, research, law enforcement, court decisions, plenum, judicial authority, rule of law.

Kirish

Huquqiy davlatda sud hokimiyati qonun ustuvorligini ta‘minlovchi asosiy institutlardan biri hisoblanadi. Sudlarning adolatli va asoslangan qarorlar qabul qilishi jamiyatda huquqqa bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi hamda inson huquq va erkinliklarining haqiqiy himoyasini ta‘minlaydi. Shu ma‘noda sud-amaliyotining sifati nafaqat amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar mazmuniga, balki ularning ilmiy asosda talqin qilinishiga ham bevosita bog‘liqdir.

Zamonaviy huquqiy munosabatlarning murakkablashuvi, qonunchilikning jadal rivojlanishi va ayrim huquq normalarida mavjud noaniqliklar sudlardan kengroq tahliliy yondashuvni talab etmoqda. Bunday sharoitda ilmiy-huquqiy tadqiqotlar sud faoliyatida muhim nazariy manba sifatida namoyon bo‘ladi. Ilmiy tadqiqotlar orqali huquq normalarining mazmuni, maqsadi va ijtimoiy ahamiyati chuqurroq ochib berilib, sud qarorlarining asoslanganligi ta‘minlanadi.

Sud-amaliyotida ilmiy-huquqiy tadqiqotlardan foydalanish masalasi huquq nazariyasida sud hokimiyatining huquqni qo‘llash faoliyati bilan chambarchas bog‘liq holda o‘rganiladi. Huquq normalarini qo‘llash jarayonida ularning mazmunini chuqur anglash, huquqiy normalarning maqsadini aniqlash va ijtimoiy munosabatlarga to‘g‘ri tatbiq etish muhim hisoblanadi. Aynan shu jarayonda ilmiy-huquqiy tadqiqotlar sudyalarga uchun muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, ilmiy-huquqiy tadqiqotlar qonunchilikdagi bo‘shliqlar va kolliziyalarni aniqlashda ham muhim ahamiyatga ega. Amaliyotda shunday holatlar uchraydiki, muayyan huquqiy munosabatni tartibga soluvchi aniq norma mavjud bo‘lmaydi yoki bir nechta normalar o‘rtasida ziddiyat yuzaga keladi. Bunday vaziyatda sud ilmiy yondashuvga tayangan holda qaror qabul qilishi huquqiy aniqlikni ta‘minlaydi.

Sud hokimiyatining mustaqilligi sudyalarning faqat qonunga bo‘ysunishi bilan emas, balki qonunni ilmiy asosda tushunib qo‘llay olishi bilan ham belgilanadi. Shu sababli ilmiy-huquqiy tadqiqotlar sudyalarga uchun faqat nazariy manba emas, balki amaliy qarorlar qabul qilishda muhim intellektual vosita hisoblanadi[2].

Sud-amaliyotini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston sud tizimida ilmiy-huquqiy tadqiqotlardan foydalanish bo‘yicha muayyan tajriba shakllanib bormoqda. Xususan, sudlar tomonidan qonun normalarini qo‘llash jarayonida ularning mazmunini aniqlashtirish va bir xilda talqin etish zarurati tug‘ilganda ilmiy yondashuv elementlaridan foydalanilmoqda.

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

Shuningdek, sudyalarning malakasini oshirish jarayonida ham ilmiy-huquqiy tahlilga e’tibor qaratilmoqda. O‘quv mashg‘ulotlarida huquqiy masalalar nazariy jihatdan tahlil qilinib, ularning sud amaliyotida qanday qo‘llanilishi muhokama qilinib yechimlar berilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi sud amaliyotida ilmiy-huquqiy tadqiqotlardan foydalanishning muayyan ijobiy tajribasi shakllangan. Xususan, Oliy sud Plenum qarorlarida qonun normalarining mazmuni va ularni qo‘llash tartibi ilmiy-nazariy asosda sharhlanadi. Bu jarayon esa sudlar uchun majburiy ahamiyatga ega bo‘lib, huquqni bir xilda qo‘llashni ta’minlaydi.

O‘zbekiston sud reformalari odatda nazariy-tahliliy asos bilan olib boriladi. Misol uchun, 2017–2021 yillarda amalga oshirilgan sud-huquq tizimi islohotlari sud hokimiyatining mustaqilligi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan edi. Bu jarayonlar nafaqat normativ hujjatlar qabul qilinganligi, balki ilmiy-tahliliy izlanishlar asosida sud islohotlari konsepsiyasini shakllantirish orqali amalga oshirilmoqda.

Shuningdek 2025-yil 21-avgustdagi “Sudlar faoliyatiga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta’minotini yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”⁷ni Prezident Farmoni sud tizimida ilmiy-ta’lim va amaliyot integratsiyasini yanada rivojlantirishga qaratilgan.

Unga ko‘ra, **Oliy sudyalarning maktabi** endilikda **“Adliya akademiyasi”ga aylantirildi**, hamda sudyalarning tayyorlash tizimi vaqt-o‘tgan sayin ilmiy izlanishlar bilan yaqinlashtiriladi. Bu yondashuv sudyalarning nafaqat amaliyotga, balki nazariy bilim va ilmiy tafakkurga asoslangan qarorlar qabul qilishiga tayyorlaydi.

O‘zbekiston sud tizimidagi eng so‘nggi yondashuvlardan biri bu — **“Raqamli sud” kontsepsiyasi**. Bu kontsepsiya sud jarayonlarini **to‘liq elektronlashtirish**, ma’lumotlarni **sun’iy intellekt yordamida tahlil etish** va sud hujjatlari asosida ilmiy tahliliy modellarning joriy etilishini nazarda tutadi.

Masalan, sud qarorlarini avtomatik saqlash, izohlar bilan birgalikda **yagona elektron bazaga kiritish** orqali sudyalarning avvalgi yondashuvlarini ilmiy tahlil qilishi, sud amaliyotida izchillik yaratishi mumkin.

Sud-amaliyotida ilmiy-huquqiy tadqiqotlardan foydalanish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlar ko‘rsatdiki, huquq normalarini to‘g‘ri talqin qilish, ularni bir xilda qo‘llash va qarorlarni asoslash jarayonida ilmiy yondashuv sudlar uchun muhim manba hisoblanadi. Shu bilan birga, sud amaliyotida ilmiy tadqiqotlardan foydalanish bo‘yicha muammolar ham mavjud: normativ majburiyatlarning yetarli bo‘lmashligi, sudyalarning va ilmiy muassasalar o‘rtasidagi hamkorlikning sustligi hamda ilmiy tahlil elementlarining amaliyotga to‘liq joriy etilmaganligi.

O‘zbekiston sharoitida esa bu yo‘nalishda ijobiy tajriba ham mavjud. Xususan, Oliy sud Plenum qarorlari sudlar uchun ilmiy asosdagi sharhlar va tavsiyalar taqdim etib, sud amaliyotida bir xillikni ta’minlaydi. Shuningdek, sudyalarning tayyorlash va malakasini oshirish kurslarida ilmiy-huquqiy tahlilning o‘rni ortib bormoqda, bu esa ularning murakkab ishlarni yanada asosli ko‘rib chiqishiga yordam beradi. Raqamli sud tizimi va elektron bazalarning joriy etilishi ham ilmiy ma’lumotlardan foydalanishni osonlashtiradi va sud qarorlarining sifatini oshiradi.

Umuman olganda, sud-amaliyotida ilmiy-huquqiy tadqiqotlardan foydalanish imkoniyatlari mavjud va ular asta-sekin rivojlanmoqda. Shu tajribalarni yanada tizimlashtirish, sud organlari va ilmiy-tadqiqot muassasalari o‘rtasida mustahkam hamkorlikni yo‘lga qo‘yish hamda sudyalarning malakasini ilmiy asosda oshirish orqali sud qarorlarining asoslanganligi, qonuniyligi va izchilligi yanada kuchaytirilishi mumkin. Natijada, sudyalarning tomonidan qabul qilinadigan qarorlar nafaqat qonuniy, balki adolatlilik va ijtimoiy jihatdan ham o‘rinli bo‘ladi bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – Toshkent, 2023.
2. Islomov Z.M. **“Davlat va huquq nazariyasi”** – Toshkent: Huquq, 2019.
3. Saidov A.X. **“Huquqiy davlat va sud hokimiyati”** – Toshkent: Sharq, 2020.
4. Xudoyberganov B. **“Sud-amaliyoti va huquqni qo‘llash masalalari”** – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
5. O‘zbekiston Respublikasi **“Sudlar to‘g‘risida”gi Qonun** – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, 2020.
6. Oliy sud Plenum qarorlari – Toshkent, 2017–2025.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-avgustdagi Farmoni **“Sud tizimini takomillashtirish va ilmiy-tadqiqot bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari”** – sudacademy.uz